

2021-yil

2020 - 2021 – O’QUV YILIDA O’RTA TA’LIM
MAKTABLARINING

**10 - SINF O’QUVCHILARI UCHUN TARIX FANIDAN
MUSTAQIL SHUG‘ULLANISH UCHUN**

IMTIHON JAVOBLARI

TARIX

10 - SINF

Tarix 10-sinf

1-BILET

1. Ashtarxoniyalar davlatining tashkil topishi.

1598-yilda Abdullaxon vafot etgach, shayboniyalar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlanib, bu kurash oxir-oqibat mazkur sulolaning butunlay qirilib ketishiga olib keldi. Buxoro xonligi taxtiga vorislikka shayboniy urug'lardan hech kim qolmagan edi. Ana shunday bir paytda Buxoroda amirlar kengashib, 1554-yili ruslarning Ashtarxonni (Astraxan, ya'ni Hojitarxon xonligini) istilo qilishi davrida Buxoroga qochib kelgan Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek sultonni (u Abdullaxonning singlisiga uylanganligi tufayli shayboniy larga kuyovdosh edi) xon qilib ko'tarmoqchi bo'ldilar. Jonibek in'om qilingan taxtdan bosh tortdi. Amirlar uning katta o'g'li Dinmuhammadni xon qilib ko'tardilar. Bu vaqtda u Obivardda edi. U Buxoroga kelayotib yo'lda halok bo'ldi. Shundan keyin uning ukasi Boqimuhammad xon qilib ko'tarildi. Jonibekning uchinchi o'g'li Valimuhammad taxt vorisi (valiahd) deb e'lon qilindi va Balxga noib qilib yuborildi.

Ana shu tariqa, 1599-yilda Movarounnahrda yangi sulola -ashtarxoniyalar - «joniyalar» (joniylar nomi urug' boshlig'i Jonibekning nomidan olingan) sulolasini tashkil topdi. Bu davlatda rasman oliy hokimiyat Jonibek Sulton qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan, uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan.

Boqi Muhammad xonlikdagi ichki siyosiy nizolarga chek qo'yishga harakat qildi, xonlikning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish choralarini ko'rdi. Balx viloyatidan eronliklarni haydab chiqarib, u yerga ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. Lekin XVII asr boshlarida Buxoro xonligi hududi Abdullaxon Ikkinchidagi davrida qaraganda juda qisqarib ketgan edi. Ashtarxoniyalar Xorazmni va Xurosonning katta qismini butunlay qo'ldan boy berdilar. Toshkent uchun qozoq sultonlari bilan ko'plab urushlar olib borishga to'g'ri keldi. Boqi Muhammaddan so'ng taxtga Vali Muhammad o'tirdi. Uning qisqa hukmronligi davrida (1606-1611) ichki kurashlar yanada kuchaydi, yirik o'zbek qabilalari beklari iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta kuchga ega bo'lib, xon hokimiyatiga bo'yusunmas edilar. Markaziy hokimiyat mamlakatda vaziyatni nazorat qilolmas, hududiy yaxlitligini ta'minlay olmas edi. Yangi xonning markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi unga qarshi fitna bilan yakunlandi va taxtni Boqi Muhammadning o'g'li ImomquJixon egalladi. U o'zining nisbatan uzoq davom etgan hukmronligi davrida (1611-1742) xonlikda hukm surayotgan o'zaro feodal urushlarga chek qo'yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, Xuroson va Xorazmni qayta qo'lga krita olmadi. Toshkent va xonlikning shimoliy chegaralari uchun ko'chmanchi qabilalar: qozoqlar, qalmiqlar, mo'g'ullarga qarshi muvaffaqiyatlari kurash olib bordi va xonlik hududini shimoli-sharqqa kengaytirdi. Bu davrda xon hokimiyatining mavqeyi oshdi, ichki vaziyat birmuncha yaxshilandi. Lekin undan keyin taxtda o'tirgan Nodir Muhammadxon (1642-1645), Abdulazizzon (1645-1681) va Subxonqulixon (1681-1702) davrida mamlakatda siyosiy vaziyat yana izdan chiqdi. Bu xonlar mahalliy feodallarga va tashqi dushmanlarga qarshi to'xtovsiz urushlar olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurashlarda hokimiyatning asosiy tayanchi din peshvolari edi. Shu sababli bu davrda yer maydonlari ommaviy ravishda diniy mahkamalar va yirik ulamolar (Jo'ybor xo'jalari kabilar) ixtiyoriga o'ta boshladи. Ivjamlakatda diniy mutaassiblik kuchaydi. Bu o'z navbatida dunyoviy taraqqiyotni bo'g'ar, davlat va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilar edi.

Tinimsiz urushlar, haddan tashqari og'ir soliqlar, mahalliy hokimlarning beboshliklari ustiga tez-tez bo'lib turgan tabiiy ofatiar (qurg'oqchilik, hasharot bosishi) ham mamlakatning iqtisodiy ahvolini izdan chiqardi, xalqning ahvolini yanada nochorlashtirdi. XVIII asr boshlariga kelib ashtarxoniyalar davlatidagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Bu sulola xonlari yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamomila tobe bo'lib, ular xonlarni taxtga ko'tarishar, taxtdan mahrum etishar, mamlakatdan quvg'in etishar yoki o'ldirishardi.

Ubaydullaxon (1702-1711) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, mamlakatda hukm surayotgan

siyosiy beboshliklarni tugatishga intilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor edi. Ubaydullaxonning bebosh o'zbek amirlarining iqtisodiy kuchini susaytirish, davlat xazinasini to'ldirish va mamlakatning moliyaviy ahvolini yaxshilashga urinib o'tkazgan pul islohoti (1708-y.) siyosiy-iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi. Zarb etilgan past qiymatli mis pullar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopilib, Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi. U katta qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat yaxshilanmadı. Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib, taxtni ashtarxoniyalar sulolasini amaldagi so'nggi xoni Abulfayzxon egalladi. Uning hukmronligi davrida (1712-1747) niamlakatda qabila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi. Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yana yo'qota bordi. Mamlakat o'zini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga bo'lina boshladi. I^amlakatni boshqarish mang'it urug'lari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va yirik zodagonlar orasida obro'ga ega boigan Muhammad Hakimbiy qo'liga o'ta boshladi. • Abulfayzxon nomigagina xon bo'lib turardi.

Asosiy hokimiyatni nufuzli amirlar Javshan qalmiq, so'ogra qushbegi Abdullabi, keyin Muhammad Hakimbiy otaliqlar boshqardilar.

Davlatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Balx Buxorodan ajralib ketdi, keyinchalik bu yerda goh ashtarxoniylardan Normuhammad avlodlari, goh har turli o'zbek shahzodalari hokimlik qilib turdilar. Badaxshonda Yorbek sulolası hukmronligi qaror topdi. Xorazm Buxorodan tamomila mustaqil bo'lib oldi.

Buxoroda mang'it urug'idan boigan qudratli Muhammad Hakimbiy irodasi bo'sh, zaif Abulfayzxon zamonida otaliq edi. Shu tariqa, mamlakat bo'laklarga boiinib ketdi. Bundan foydalangan qalmiq va qozoqlar yetti yil mobaynida mamlakatning juda ko'plab vodiylarini, bog'-rog'larini poymol qildilar. Gullab-yashnab turgan joylar choiga aylandi. G'alla, meva, sabzavot mahsulotlari keskin kamayib ketdi.

2. Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ma'lumot bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo'lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko'rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san'at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron - buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug'ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismidan iborat. «Tug'ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurning) tug'ilishi bilan bog'liq urchodatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya'ni «Tog'rilik najotdir» degan shiori oltin harflar bilan yozib qo'yilgan. Shuningdek, bu qismida Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o'tkazayotgan kengashi aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o'tib kelayotganligi g'oyasi tasvirlangan.

3. Abdulla Qodiriylar hayoti va ijodi.

Abdulla Qodiriylar 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandası, o'zbek romançılığının asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtiroychisi. Musulmon maktabida (1904-06), rus-tuzem maktabida (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916-17) ta'lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925-26) o'qigan. Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923-26). «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914-15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Maxzumning xotira daftارидан», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi. «O'tgan kunlar» (1924-26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanları, «Obid ketmon» (1934) qissası yozuvchining ulkan mahoratını o'zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarını o'zbek tiliga

tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum»da boshilgan «Yig‘indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994).

2-BILET

1. Shayboniyalar davlatining tashkil topishi.

Tarixdan ma'lumki, XI-XVI asrlarda g'arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz, shimoli-sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha, janubda esa Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimlari oralig'idagi yerlar Dashti Qipchoq deb yuritilgan. Bu hududda dastlab Jo'ji ulusi norai bilan Oltin O'rda xonligi tashkil etilgan.

XIV asr oxirlarida Oltin O'rda xonligi Amir Temur tomonidan tor-mor etilganidan so'ng parchalanib, bir necha xonliklarga bo'linib ketdi. Volga daryosining o'rtasi va quyi oqimlarda Qozon va Ashtarxon (Hojitarxon) xonliklari, Qrim yarim orolida Turkiya ta'sirida bo'lgan Qrim xonligi vujudga keldi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida esa Oq O'rda tashkil topdi. Bu katta hududda qiyot, mang'it, do'rmon, qushchi, o'rtachi, nayman, tuba, toyraas, jot, xitoy, uyg'ur, qorluq, ushun (usun), karlavut, ichki, ming, tan gut, qo'ng'iroq va boshqa qabilalar yashagan. Bu ulus O'zbeklar davlati, uning aholisi «o'zbeklar» deb atalgan.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi, ya'ni Oq O'rdada shayboniylardan bo'lgan Abulkayrxon (1428-1468) tarqoq bo'lgan mayda xonliklarni birlashtirib, katta davlatga asos soldi. Keyinchalik mang'it urug'lari ham Abulkayrxon qo'l ostiga birlashtirildi. Qozoq urug'lari XV asrning 40-yillarda Abulkayrxonga bo'y sunishdan bosh tortib Chu va Yettisuv vohasiga ko'chib ketdilar va keyinchalik Qozoq xonligiga asos soldilar (1465).

Dashti Qipchoqda siyosiy tartibsizliklar, katta yer egalari bilan dehqonlar va chorvadorlar o'rtasida ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida davlat zaiflashib bordi. Ana shunday sharoitda hokimiyatni qo'lga olgan Abulkayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-yilda tug'ilgan, yoshlik yillarda Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qigan) Dashti Qipchoqdagi qabilalarni birlashtirib, davlat hokimiyatini yanada mustahkamlaydi.

Amir Temur vorislari o'rtasida olib borilgan to'xtovsiz feodal urushlar temuriylar davlatining kuchsizlanishiga olib keldi va birin-ketin ular qaramidagi davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. Xorazmdan Astrobodgacha bo'lgan keng raasofada joylashgan turkmanlar bir necha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha o'zaro kelisha olmas edilar. Lekin ular qulay vaziyatdan foydalanib Temuriylar davlatidan ajralib chiqdilar. Farg'ona vodiysi ham ajralib mustaqil davlat tashkil etdi. Bundan tashqari forsiy dehqon aholi joylashgan Hisor va Badaxshon ham mustaqil davlatga aylandi. Movarounnahrda temuriy hukmdorlarning o'rnini Abulkayrxonning neverasi Shayboniy asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Temuriylar davlatining zaiflashganligi, tarqoqlikning kuchayishi va hokimlikka da'vogarlarning o'zaro to'xtovsiz urushlari shayboniyarning Turkistonga hujumi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Shayboniyxon XV asr oxirlarida Turkistonga bir necha bor yurishlar qilib O'tror, Sabron, Yassi (Turkiston) shaharlarini bosib oldi.

U 1499-1507-yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruhiya, Farg'ona, Qunduz, Xorazm, Balx va Hirotni ishg'ol qilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosponni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydilar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. Bu davlat poytaxti avval Samarqandda bo'lgan bo'lsa, XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Shundan keyin bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi. Butun XVI asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan shayboniylar sulolasini hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik Shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq o'zining azaliy qon-qarindoshlari bilan qo'shilib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlarda XV asrning 20-yillarida Qipchoq dashtining Sharqiy yerlarida tashkil topgan, qirq yildart ziyodroq hukm surgan Abulxayrxon (1428-1468) hamda Movarounnaharda tashkil topgan Muhammad Shayboniyxon (1450-1510) davlatlarini ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb atashgan. Ammo bu unchalik to'g'ri emas, chunki ushbu davlatlarning asosiy aholisi mol chorvachiligi bilan shug'ullangani holda, ular tarkibiga, shuningdek, Sirdaryoning quyi qismida, qisman Xorazm vohasining chekkalarida hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ul-lanuvchi urug' va qabilalar ham kirgan.

2. Minorai Kalon me'moriy yodgorligi haqida ma'lumot bering

Minorai Kalon (Katta Minora) me'morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrdagi amiri Arslon Bug'roxon tomonidan bunyod etilgan. Minorai Kalonning bunyod etilishi o'rta asrlarning rivojlangan davriga (XII asr), aniqrog'i, 1127-yilga to'g'ri keladi. Me'moriy obidaning qurilishida tosh, maxsus qir qotishmasidan, chorsu pishiq g'ishtidan, loy, taxta va boshqa bir qator ashayolardan foydalanilgan. Uning dizayni haqida gapiradigan bo'lsak, balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salsa shaklidagi yuqori qismi g'isht o'ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O'qsimon tirkak o'rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustanning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g'ishtin aylanma zinapoya bo'lib, mezanaga olib chiqadi. Kursisi qirrador, tanasi g'o'lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko'shk bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 aylanma zinapoya orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai Kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsu pishiq g'ishti (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g'ishti o'mniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy-diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to'kilib ketgan). Me'moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot pishiq g'ishtdan Sharq an'analarining naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Me'moriy inshootning o'ziga xos tomoni shundaki, u Buxoro shahrida qad ko'targan boshqa inshootlardan o'zining me'moriy yechimi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, me'moriy inshoot balandligi jihatidan ham boshqa me'moriy inshootlardan ajralib turgan. Minora o'z davrida muazzin uchun azon aytish joyi vazifasini o'tagan bo'lsa, harbiy maqsadlarda esa kuzatuv obyekti ham bo'lganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Minoraning bugungi kungacha bo'lgan holatlari haqida gapiradigan bo'lsak, tanasi va muqarnaslari ta'mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan (1960). Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ham ta'mirlash ishlari olib borildi (1997). Bundan tashqari, me'moriy inshoot atroflari obod etilib, ko'kalamzorlashtirilgan. Me'moriy obidaga xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.

3. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi.

Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. U mifik va madrasada ta'lim olib, o'z zamonining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. Oczi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi.

3-BILET

1. Spartak qo‘zg‘oloni.

Mil. avv. 74-yilda boshlangan Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo‘zg‘ololnlardan biri bo‘ldi. Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik mактабига sotib yuborilgan frakiyalik qul Spartak qullarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafдорлари qоровулларга hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular Vezuviy tog‘idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo‘shila boshladi va qo‘zg‘olon ko‘targanlar safi kengaya bordi. Ko‘p o‘tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarni tor-mor etishga jo‘natilgan uch ming kishilik qo‘shin Vezuviy tog‘lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. Spartak kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to‘qib, ko‘rinmaydigan tarafdan cho‘qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergen Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko‘p o‘tmay qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida ixtilof paydo bo‘ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o‘z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko‘pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldlardan qasos olishga ahd qilishdi. Spartakka qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligidagi ko‘p ming sonli qo‘shin jo‘natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro‘y bergen hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o‘zi esa ana shu jangda halok bo‘ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig‘idagi yo‘l bo‘ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

2. Tillakori madrasasi haqida ma‘lumot bering.

Samarqandning Registon maydonida joylashgan Tillakori madrasasi Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan bунyод etilgan. Me’moriy obidani bунyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo‘lsak, Yalangto‘shbiy Bahodir Saidqul o‘g‘li, Yalangto‘shbiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarkoniylar davrida olchin qabilasidan bo‘lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Yalangto‘shbiyning buyrug‘i bilan ikkinchi yirik madrasa Tillakori 1646-1660-yillar mobaynida qurilgan. Uning qurilishida pishgan va xom g‘isht, loy, yog‘och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan. Me’moriy obidaning dizayni: peshtоq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavatlari hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezanalar egallagan. Madrasa xonaqohi (10,8x10,8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi. Uning gumbazi oxiriga yetkazilmagan. Xonaqoh to‘riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O‘z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvon (yo‘laklar) egallagan. Peshtоq ravog‘idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659-1660-yillarda bajarilganligi yozilgan. Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtоq qanosи va tokchasidagi iroqi kashtani eslatadigan bezaklar, bo‘rtma yozuvlar o‘ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni to‘ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo‘llashgan. Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg‘ish yaproqchalar va feruza poyalar aks ettirilgan. Xonaqoh izorasi koshin namoyon, devori, gumbazi va bag‘ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravog‘i va bag‘ali muqarnas kosachalar bilan to‘ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur‘on oyatlaridan olingan bo‘rtma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan. Hovli sahni (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobodonlariga panjaralar ishlangan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilib, koshinlarning qadimiy rangini topish yo‘lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Inshootning uslubiga keladigan bo‘lsak, Sharq me’morchiliginи o‘zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon, “Chor” uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, dastlab u Yalangto‘shbiy Bahodirning kichik maqbarasi nomi bilan atalganligiga qaramay xalq orasida Tillakori nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bundan tashqari, dastlab madrasaning o‘rnida Mirzoyi karvonsaroyi bo‘lgan. Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot mamlakatimiz mustaqilligi davrida va undan oldin ham bir necha bor ta‘mirlangan. Jumladan hozirgi kunda me’moriy inshoot muzey vazifasini o‘tamoqda.

Me'moriy inshoot ko'pgina xalqaro sayyoohlarning e'tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

3. Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886 yil Buxoroda ziyoli oиласида туг'илди. 1909-1913 ўйларда esa adib Turkiyada, Istanbul doilfununida tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda «Buxoro ta'limi (umumiy) maorif jamiyatini»ni tuzadi. Fitrat 1919-20 ўйларда Afg'oniston hukumatining Toshkentdag'i vakolatxonasida tarjimon, «Turon», «Buxoroi sharif», «Oina» kabi ko'pgina gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo'ddi, Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan «Chig'atoy gurungi» tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishladi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yozildi. 1923-1924 ўйларда Fitrat ma'lum muddat Leningradda, so'ngra Moskvada yashadi. Unga o'zbek ziyoilari ichida birinchilardan bo'lib professor ilmiy unvoni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqa maktabi ochdi. O'smirlik yillari u Mijmar («cho'g'don») taxallusi bilan, so'ngra Fitrat («tug'ma iste'dod») taxallusi bilan ijod qildi. Fitratning «Muxtasar islom tarixi» (1915), «Ro'zalar», «Shaytonning tangriga isyonii» (1924), «Qiyomat» kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan. Qomusiy bilim va badiiy iste'dod egasi bo'lgan Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda otib tashlangan.

Ushbu imtihon javoblarini olish uchun telegramdan [@uzimtihon_admin](#) ga yoki telegram orqali [+998 99 394 2820](tel:+998993942820) raqamiga bog'laning.

Imtihon biletin narhi

8 ming so'm

To'lov klik yoki payme orqali

BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI

Telefon qilinganda yoki SMS yozilganda javob bermasligim ehtimoli yuqori